



КАЗАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБАЙ



«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI, MADANIYATI»

MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA

TOSHKENT - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

TOSHKENT - 2025



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rganish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

G.Norimova – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,
Y.Shirnova, M.Yo'ldosheva.

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.



DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/IJTE5374

**ESSE YOZISHDA YO'L QO'YILADIGAN XATOLAR VA ULAR USTIDA ISHLASH
USULLARI****Avezova Dilnura Bayramovna***Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti mustaqil
tadqiqotchisi
davezova80@gmail.com*

Annotatsiya. Mazkur tezisda esse yozishda o'quvchilar tomonidan yo'l qo'yiladigan xatolar va ularning tahlili hamda xatolarni bartaraf etishga qaratilgan tavsiyalar xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: esse, adabiy tahrir va korrektura, matn, yozma nutq.

Аннотация. В данной диссертации рассматриваются наиболее распространенные ошибки, допускаемые студентами при написании эссе, их анализ и рекомендации по их устранению.

Ключевые слова: эссе, литературное редактирование и корректура, текст, письменная речь.

Annotation. This thesis discusses the most common mistakes made by students when writing essays and their analysis, also recommendations for eliminating them.

Keywords: essay, literary editing and proofreading, text, written speech.

O'quvchilarning yozma nutq malakalarini rivojlantirish masalasi ona tili ta'limining eng asosiy maqsadlaridan biri sanaladi. Ona tili ta'limida yozma nutq malakalarini shakllantirish jarayoni turli uslubdagi matnlarni yaratish bilan bog'liq holda olib borilib, ular orasida aynan esse yozish, yozilgan esselarni muayyan mezon asosida baholash masalasi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Yozma nutqni rivojlantirish murakkab jarayon bo'lib, bunda har bir yozma ish turining o'ziga xos jihatini hisobga olish, unda shakl va mazmun birligiga erishish muhim hisoblanadi. Shakl jihatdan so'z va qo'shimchalarni to'g'ri qo'llash, gap, ularning o'zaro bog'lanishi, tinish belgilaridan o'rinli foydalanish, so'zlar imlosiga e'tiborli bo'lish, xatboshilarni to'g'ri aniqlash singari ko'nikmalar talab etilsa, mazmun jihatdan rejani to'g'ri tuza olish, berilgan mavzuni to'la yoritish, qo'yilgan maqsaddan uzoqlashmaslik, fikrlarni asoslash, shaxsiy munosabatni ifodalash, muayyan muammoga nisbatan turli yechimlarning taklif etilganiga diqqatni qaratish lozim bo'ladi.

"Ona tili ta'limida o'quvchilarning esse yozish malakasini rivojlantirish metodikasi" mavzusidagi tadqiqot ishi bo'yicha olib borilgan tajriba-sinov ishlaridan ma'lum bo'ldiki, 10–11-sinf o'quvchilari esse yozishda eng ko'p uchraydigan xatoliklar publitsistik uslub qoidalaridan chetga chiqish, mavzuga aloqador bo'lmagan argumentlar orqali fikrlarni dalillash, xatboshilarga to'g'ri ajratmaslik, juda uzun, hajmi katta jumladan foydalanish, shaxsiy munosabatning sezilmasligi, berilgan mavzuning muhimligini qayta takrorlash, mavzudan uzoqlashish, hikmatli so'z, sitataning muallifi haqida ma'lumot



berishga o'tib ketish, so'z va qo'shimcha qo'llash, imlo va punktuatsiya bilan bog'liq xatolar ekani aniqlandi.

1. Publitsistik uslub qoidalaridan chetga chiqish.

Bunda o'quvchi publitsistik uslub qoidalaridan chekinadi, asosan, badiiy yoki so'zlashuv uslubiga oid birliklardan foydalanishi kuzatildi.

2. Mavzuga aloqador bo'lmagan argumentlar orqali fikrlarni dalillash.

Tashkil etilgan nazariy darslar orqali o'quvchi esseda fikrlarni dalillash uning yozma ishiga qo'shimcha ball olib kelishini bilib olishdi. Shu sababli aksariyat o'quvchilar esse mavzusi bilan aloqador bo'lmagan maqol, hikmatli so'z, sitatalardan ham foydalanishga harakat qilishni boshlagani aniqlandi.

3. Xatboshilarga to'g'ri ajratmaslik.

Esse strukturasi yaxshi bilmaslik, uning har bir qismida qanday mazmundagi fikrlarni ifodalash kerakligini tushunmaslik oqibatida matnni kichik qismlarga ajrata olmaslik holati kuzatildi. Ayniqsa, asosiy qismda keltirilishi lozim bo'lgan har bir argumentni alohida xatboshidan yozmaslik, ularning hammasini aralashtirib yuborish holati ko'p uchradi.

4. Juda uzun, hajmi katta jumladan foydalanish.

O'quvchilar badiiy asarlar yoki darsliklarda ko'p uchratadigan gap qoliplaridan foydalangan holda o'z fikrini mukammal tarzda ifodalashga urinadi. Oqibatda bir jumlada bir necha fikrni ifodalash orqali ham uslubiy, ham punktuatsion xatolarga yo'l qo'yadilar. Shu sababli, o'quvchiga qo'shma gaplarning murakkab bo'lmagan turidan foydalanishni tavsiya etish zarur.

5. Shaxsiy fikrni ifodalamaslik, uni dalillamaslik.

Esse yozish qoidalariga ko'ra, o'quvchi masalaning har ikkala tarafini tahlil qilib, uni dalillab bo'lgandan so'ng ushbu masalaga nisbatan o'zining pozitsiyasini bildirishi juda muhim sanaladi. Ammo ko'pgina o'quvchilar ayni shu jihatga e'tibor qaratmaydilar. Masalaning ikki tomoni haqida fikr bildirib, shundan so'ng xulosa qismga o'tib ketishni ma'qul ko'radilar.

6. Muammoning muhimligini ta'kidlab o'tish.

Essega mavzu qilib olingan masalalar aynan muhim bo'lgani uchun tanlab olinadi, yozma ishda uni yana qaytadan muhim ekanini ta'kidlash to'g'ri emas.

7. Mavzudan uzoqlashish.

Esse hajmiga oid talabni bajarish yoki maqsadni yaxshi anglamaslik yozma ishni mavzu bilan aloqador bo'lmagan fikrlar bilan to'ldirish holatini yuzaga keltiradi. Shu sababli o'quvchi essening mavzusini yaxshilab o'qib, uni yozdirishdan ko'zlangan maqsadni to'la anglab olishi zarur. Aynan mavzuni yaxshi anglab olgan o'quvchining essesi shu jarayonning o'zidayoq 50 % muvaffaqiyatli chiqishi kafolatlanadi.

8. Hikmatli so'z, aforizm yoki sitata muallifi haqida ma'lumot berish.

Masalaning ikki tarafiga oid yoki o'z shaxsiy fikrini ifodalash va dalillashda o'quvchidan hikmatli so'z, aforizm, sitata yoki statistik ma'lumotlardan foydalanish talab etiladi. Amaliyotda kuzatishlardan ma'lum bo'ldiki, o'quvchilar ushbu jarayonda birdan dalil sifatida keltirilgan fikrning muallifi haqida yozib ketishni ma'qul ko'radilar. Bunga sababni esa esse hajmini sun'iy ravishda



oshirishga bo'lgan urinish bilan izohlash mumkin. Ammo bu harakat esse uchun oladigan ballning pasayib ketishiga sabab bo'ladi.

9. So'z va qo'shimcha qo'llash bilan bog'liq xatolar.

O'quvchilarda so'zlarning ma'no va tuzilishiga ko'ra turlari, ularning uslubiyati, qo'shimchalar va ularning uslubiyati bilan bog'liq bilimlarning yetishmasligi ham ko'plab xatolarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Bunday xatolarning kelib chiqishiga asosiy sababni ta'lim jarayonida lingvistik vositalarning uslubiyati hamda adabiy tahrirga oid mazmundagi topshiriqlardan foydalanmaslik bilan bog'lash mumkin.

10. Punktuatsiya va imlo bilan bog'liq xatolar.

Tinish belgilari va imlo bilan bog'liq xatolar har qanday turdagi yozma ishda uchraydigan xatolar turiga kirib, ular ustida ishlash uchun o'quvchilarga fokusni aynan shu jihatlariga qaratuvchi mashq va topshiriqlar tizimidan foydalanish tavsiya etiladi.

Esse yozishda ko'p yo'l qo'yiladigan xatolarning kelib chiqishiga asosiy sababini "Ona tili" darsliklarida yuqorida sanab o'tilgan mazmunga ega bo'lgan, ya'ni yozma nutqda amaliylik jihati yuqori bo'lgan mashq va topshiriqlarning yetarli emasligi bilan izohlash mumkin. Ammo shunday mazmundagi mashq va topshiriqlarning darsliklarga kiritilishi ham o'quvchilarning yozma nutqda uchraydigan xatolarni butkul yo'q qilib yuborish uchun yetarli bo'lmaydi. Shunday ekan, quyida ayrim xatolar ustida ishlashga oid metodik tavsiyalarni berib o'tishni maqsadga muvofiq deb bildik.

Xatolar ustida ishlashning eng samarali usullaridan biri yozilgan esselar tahlilini amalga oshirish hisoblanadi. Mazkur muammoni hal etishda adabiy tahrir va korrektura bilan bog'liq darslarni tashkil etish juda muhim.

K.Mavlonova [1] matn tuzilishini o'rgatishga :r tadqiqotida adabiy tahrir va korrekturadan foydalanish bilan bog'liq quyidagi mazmundagi metodik tavsiyalarni bergan: "O'quvchilarni o'zlari tuzgan matndagi xatolarni ko'ra olishga o'rgatish uchun o'qituvchi turli ishoralardan foydalanadi: o'quvchining daftariga belgilar, masalan, daftar hoshiyasiga quyidagi shartli belgilarni qo'yib chiqishi mumkin:

S	sarlavha yo'q
R	reja yo'q
Xb	xatboshidan
XBe	xatboshidan emas
Nb	noto'g'ri bog'langan
By	bog'lanish yo'q
Sa	so'zni almashtirish
T	takror
V	nimadir tushib qolgan
D	dalillar yo'q
U	uslub
BTv	badiiy tasvir vositlari yo'q
EEV	emotsional-ekspressiv vosita yo'q
TbY	tinish belgilari qo'yilmagan



Albatta, jadvalda berilgan shartli belgilarning hammasi ham esse matniga to'la mos kelmasligi mumkin, jumladan, S, R, BTV, EEV singari belgilar essen adabiy tahrir qilishda qo'llanmaydigan belgilar sirasiga kiradi. Ammo mazkur belgilarni ba'zi belgilar bilan almashtirish orqali ushbu tavsiyaning esse yozishdagi ahamiyatini yanada oshirish mumkin. Masalan:

Me	mavzuga aloqador emas
ShFy	shaxsiy fikr mavjud emas
Qa	qo'shimchani almashtirish

Bu belgilar orqali o'quvchi xatolarini o'zi tuzatishi, gaplarni qaytadan yozishi mumkin.

Har bir xato turini bartaraf etishga oid maxsus topshiriqlardan foydalanish, o'quvchi fokusini ayni shu jarayonga qaratish juda ahamiyatlidir. Bu jarayonda asosan adabiy tahrir va korrekturaga oid bo'lgan mashq va topshiriqlardan foydalanish samarali hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Mavlonova K. Ona tili darslarida matn tuzilishini o'rgatish metodikasi. Ped. fan. dok-ri ... diss. – Toshkent, 2023. – 278 b.
2. <https://www.akademik.help/esse/kak-vyibrat-temu-dlya-esse>

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/TJNR3525

O'ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O'QITISHDA LUG'AT BOYLIGINI SHAKLLANTIRISHNING MAVJUD HOLATI

Axmadjanova Malika Maxmudjon qizi

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
tayanch doktoranti*

E-mail: malikaakhmadjanova97@gmail.com

ORCID ID 0009-0007-0309-0960

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'rganayotgan talabalar orasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda 114 nafar xorijiy talabalar ishtirok etgan bo'lib, ular o'zbek tilining lug'at boyligini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar va o'rganish metodlari haqida ma'lumot bergan. So'rovnoma natijalari shuni ko'rsatadiki, talabalar lug'at o'rganishda asosan kartochkalar, kitoblar va onlayn ilovalardan foydalanadilar, ammo darslarda lug'atni o'qitishga ajratilgan vaqt yetarli emas. Shuningdek, ona tilining til o'rganishga ta'siri katta ahamiyatga ega: masalan, pokistonlik talabalar uchun arab va fors tillarining lug'at boyligi o'zbek tilini o'rganishda ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotda, shuningdek, o'quvchilarning ijtimoiy-emotsional omillari, motivatsiyasi va o'rganish uslublarining lug'at o'zlashtirishdagi ahamiyati ta'kidlanadi. Ushbu tadqiqot o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'rgatish bo'yicha metodik yondashuvlarni takomillashtirish uchun ilmiy asos yaratadi.

Kalit so'zlar: metodik yondashuv, ijtimoiy-emotsional, motivatsiya, metodlar.

Аннотация: В статье анализируются результаты опроса, проведенного среди иностранных студентов, изучающих узбекский язык как иностранный. В исследовании



<i>MASALASI</i>	
<i>Abdiraimova Khusnobod Samat kizi. KOGNITIV VA METAKOGNITIV O'QIB TUSHUNISH STRATEGIYALARI</i>	597
<i>Xonzodabegim Abdiyeva Turdiboy qizi. ONA TILINI O'QITISHDA FOTO MATERIALLARDAN FOYDALANISH</i>	603
<i>Abduqaxxorova Durdona Farxod qizi. SO'ZNING SEMANTIK TARKIBIDA ASOS VA AFFIKSLARNI O'QITISH USULLARI</i>	605
<i>Ahmadjonova Umida Ikromjon qizi. ONA TILI TA'LIMIDA O'QISH SAVODXONLIGINI OSHIRUVCHI O'QUV TOPSHIRIQLAR TAHLILI</i>	614
<i>Askarova Mashxura Akmal qizi. NOFILOLOGIK YO'NALISHLARDA DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA O'ZBEK TILINI O'QITISH</i>	620
<i>Atamurodova Gulnora Shermurodovna. TALAFFUZI QIYIN BO'LGAN AYRIM NUTQ TOVUSHLARI USTIDA ISHLASH METODIKASI</i>	626
<i>Baxtiyorova Xusnora Muzaffar qizi. IJOD MAKTABLARIDA YOZMA NUTQ KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHGA OID AMALIY TOPSHIRIQLAR TAVSIFI</i>	630
<i>Avezova Dilnura Bayramovna. ESSE YOZISHDA YO'L QO'YILADIGAN XATOLAR VA ULAR USTIDA ISHLASH USULLARI</i>	635
<i>Axmadjanova Malika Maxmudjon qizi. O'ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O'QITISHDA LUG'AT BOYLIGINI SHAKLLANTIRISHNING MAVJUD HOLATI</i>	638
<i>Davronova Zebiniso Bahtiyor qizi. SEZGI A'ZOLARI ASOSIDA TASVIRIY MATN YARATISH JARAYONI TAHLILI</i>	646
<i>Ergasheva Lobarxon O'tkir qizi. TIL O'QITISH VA O'RGANISHDA AUTENTIK MATN VA UNDAN FOYDALANISHDAGI AFZALLIK VA KAMCHILIKLAR</i>	651
<i>Hamroyev Umid Mustafoyevich. O'QUVCHILARDA KOGNITIV KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH</i>	656
<i>Iskandarova Noila Muxtor qizi. PUBLITSISTIK USLUBNI O'RGANISH ORQALI O'QUVCHILARNING TANQIDIY VA IJODIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH</i>	661
<i>Israilova Z. XORIJLIK TALABALARINING O'ZBEK TILIDA SO'Z O'ZLASHTIRISH BOSQICHLARI</i>	664
<i>Komilova Lola Nosillojevna. ONA TILI TA'LIMIDA DARAJALI TESTLAR</i>	670
<i>Axmadiyeva Ozoda Iskandar qizi. 10-SINF O'QUVCHILARINING OG'ZAKI NUTQINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI</i>	677
<i>Madina Axmadjanova Mahmudjon qizi. MUSTAQIL SO'Z TURKUMLARINI GRAMMATIK MINIMUM ASOSIDA O'QITISH TAMOIYILLARI</i>	682
<i>Komilov Xusanboy Bahodir o'g'li. ONA TILINI O'QITISHDA INTERFAOL DASTURLAR VA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH</i>	689
<i>Madvaliyev Orifjon Tolibovich. TAHRIR TA'LIMINI TASHKIL ETISH: DASTLABKI QADAMLAR</i>	693

